



**TERMIZ TUMANINING ETNOGRAFIK TARKIBI VA HUDUDIY  
SHAKILLANISHI**

*Abdursaulov Dilbek*

Termiz davlat pedagogika instituti

Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti

*Tarix yoʻnalishi 2-bosqich talabasi*

**ANNOTATSIYA:** Termiz tumani Oʻzbekistonning Surxondaryo viloyatida joylashgan boʻlib, tarixiy, etnografik va hududiy jihatdan boy merosga ega hududlardan biridir. Ushbu maqolada tumanning shakllanishi, undagi aholining milliy tarkibi va etnomadaniy xususiyatlari asrlar davomida tarix silsilasida alohida oʻrin tutgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi mavqeyi, madaniy aloqalar taʼsirida rivojlanib borganligini va shu bilan bir qatorda hududiy tuzilmalari tarix nuqtai nazaridan farq qilsa ham uning tarixdagi nomi uzoq davrlardan buyon shu hududa jarang sochib, insonlar diqqatiga sazovor boʻlib kelayotganligini eʼtirof etmaslikning iloji yoʻq. Termiz tumani oʻzining boy etnografik tarkibi va tarixiy-hududiy shakllanishi bilan ajralib turadi.

**Kalit soʻzlar:** Etnografiya, etnik tarkib, hududiy joylashuv, madaniy meros, Termiz tumanining tarkibiy va hududiy tuzilishi.

**Termiz tumani** — Surxondaryo viloyatidagi tuman. U 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Janubiy va gʻarbdan Afgʻoniston, sharqdan Tojikiston, shimolidan viloyatning Angor va Jarqoʻrgʻon, shimoli-gʻarbdan Muzrabot tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 0,86 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 300 ming kishiga yaqin (2025). Markazi — Uchqizil qishlogʻi Termiz tumani respublikaning eng janubida, Termiz shahri yaqinida joylashgan. Tuman hududining sharqiy qismi Hisor togʻ tizmasining davomi Toʻyintogʻ, Kaykitogʻ va uning etaklari, Xotinrabot va Qiziriq choʻllari hamda uning davomi — Qoraqir, Uchqizil, Kattaqum massivi, Eski Termiz adirlari va qirlari bilan band. Bu yerlardan yaylov sifatida foydalaniladi. Janubiy va gʻarbi — Surxondaryoning Amudaryoga quyilgan qismi va Amudaryo, Surxondaryo sohillaridan iborat boʻlib, tuprogʻi taqir va shoʻrxok. Amudaryo, Qorasuv, Sherobod daryolari tuman hududi orqali oʻtadi. Foydali qazilmalardan neft topilgan. Tuprogʻi,





asosan, och sarg'ish qum aralash tuproq. Adir va soyliklarda (shimoli-g'arbida) qo'ng'ir qum tuproq bo'lib, chirindisi ancha kam. Surxondaryo sohillarida to'qay qo'ng'ir tuprog'i va qum tuproq uchraydi. O'simliklardan oq saksovul, cherkez, taroqbosh, yaltirbosh, yantoq; daryo bo'ylarida yulg'un, jiyda, terak, qiyoq, qamish; tog'larning baland qismida betaga, daraxt va butalardan archa, yovvoyi mevali daraxtlar o'sadi. Amudaryo vodiysida to'qayzorlar bor. Yovvoyi hayvonlardan daryo bo'ylaridagi qamishzor va cho'llarda qirg'ovul, kaklik, tustovuq, quyon, jayra, bo'ri, chiyabo'ri, tulki, yovvoyi mushuk uchraydi.

### **Termiz iqlimi:**

Termiz tumani hududida Surxondaryo qo'riqxonasi joylashgan. Tumanda Zang kanali (Surxondaryodan suv oladi), G'alaba, AmuZang (Amudaryodan suv oladi) sug'orish kanallari, Uchqizil suv ombori qurilgan. Iqlimi keskin kontinental. Iyul oyining o'rtacha temperaturasi 31,4°, eng yuqori temperatura 48° ga yetadi. Yanvar oyining o'rtacha temperaturasi 2,8°, eng past temperatura —21°. Tumanning janubi-sharqiy qismida „Afg'on shamoli“ esadi va ekinlarga zarar yetkazadi. Vegetatsiya davri 226 kundan 266 kungacha. Yozda tranning yuqoriligi, iliqissiq kunlarning uzoq davom etishi tumanda issiqsevar subtropik o'simliklar — ingichka tolali paxta, xurmo va hatto shakarqamish, apelsin, mandarin yetishtirishga imkon beradi. Aholisi, asosan, o'zbeklar (80,2%), shuningdek, turkman, tojik va boshqa millat vakillari ham yashaydi. 1 km<sup>2</sup> ga 280,4 kishi to'g'ri keladi.

**Tuman xo'jaligining asosiy tarmoklari** — paxtachilik, g'allachilik, chorvachilik, mevachilik, poliz va sabzavotchilik. Ingichka tolali paxta yetishtirish ilk bor Termiz tumanida sinab ko'rilgan. Tuman hududida O'zbekiston paxtachilik ilmiy tadqiqot institutining Surxondaryo filiali ishlab turibdi. Bu yerda seleksioner olimlar so'nggi yillarda ingichka tolali serhosil va tezpishar paxta navlarini yaratmoqdalar. „Termiz 1“, „Termiz 16“, „Termiz 24“, „Termiz 31“, navlaridan yuqori hosil olinmoqsa. Tumandagi jami 599 korxonadan 92 tasi davlat va 507 tasi nodavlat korxonalaridir. Termiz tumanida 4 qo'shma korxonalar, 14 aksiyadorlik jamiyati, 20 mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va 339 sanoat, qurilish va boshqa korxonalar bor. Tumandagi 13 ming ga sug'oriladigan yerda dehqonchilik qilinadi, shundan 5400 ga yerga paxta, 5179 ga yerga g'alla, 560,2 ga yerga sabzavot, 122,2 ga yerga kartoshka, 104 ga yerga poliz ekinlari ekiladi. 394 ga mevazor, 242 ga yer tokzor bilan band. Ihota daraxtzorlari, o'rmonzorlar mavjud. Termiz tumanida 9 shirkat, 1858 fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatadi, parrandachilik fabrikasi ishlab turibdi (2004). Tumanda jami 24,6 ming qoramol (shu jumladan, 12,5 ming sigir), 39,6 ming qo'y va echki, 329,7 ming parranda, 226 ot boqiladi .





Termiz tumani hududida Eski Termiz xarobalari (umumiy maydoni 300 ga) saqlanib qolgan. Shuningdek, Qoratepa, Chingiztepa, Qirqqiz qal'asi, To'rtauz gumbaz maqbarasi xarobalari, ZulKifl mozori, Uyiqgumbaz, Xo'ja Ro'shnoiy maqbaralari, Hakim atTermiziy, Sulton Saodat me'moriy majmualari, Katta masjid, Kokildor ota xonaqohi kabi me'moriy yodgorliklar saqlangan.

**Termiz arxeologiya muzeyi**—zamonaviy O'zbekistonning Termiz shahridagi muzey. Muzeydasaqlanayotganashyolarasosan YunonBaqtriya va Kushonlar davriga oid. Bodxi daraxti ostida o'tirgan Buddha yoki Kushon shahzodasining boshi kabi ba'zi artefaktlar aslida nusxalar bo'lib, ularning asl nusxasi Toshkent tarix muzeyi va SanktPeterburgdagi Ermitaj muzeyidasaqlanadi. Salallitepa, Kampirtepa, Xolchayon, Bolaliktepa va Fayoztepaning masshtabli maketlari ham mavjud<sup>[3][4]</sup>. Sherobodagi Tavka qo'rg'onida „Toxariston malikasi“ deb nomlangan mashhur devoriy surat topilgan.

**Termiz arxeologiya muzeyida** Surxondaryo viloyatida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan topilmalar saqlanadi. Viloyat Arxeologiya muzeyi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12 yanvardagi "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 martdagi "Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida" gi 98-sonli va 1999 yil 27 dekabr"dagi Termiz shahrining 2500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" gi 545-sonli qarorlari asosida tashkil etildi.



Termiz arxeologiya muzeyi


Arxeologiya muzeyi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 oktyabrdagi 08-10-168 sonli majlis bayonnomasiga muvofiq Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufiga o'tkazildi va Madaniyat ishlari vazirligining 2001 yil 24 oktyabrdagi 10-231 sonli buyrug'iga asosan vazirlik tizimiga kiritildi (endilikda Madaniyat va sport ishlari Vazirligi). Arxeologiya muzeyining tematik-ekspozitsion





rejasi 2001-yil 14 fevraldagi „O‘zbekmuzey“ jamg‘armasining arxeolog olimlar ishtirokidagi kengaytirilgan majlisida tasdiqlanib, Madaniyat ishlari vazirligining muzey ishlari boshqarmasi tomonidan qayta tahrir o‘tkazilib, Madaniyat ishlari vazirligiga taqdim etildi. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining 2001 yil 24 oktyabrdagi 231-sonli Buyrug‘iga asosan „Arxeologiya“ muzeyining fondini yangi eksponatlar bilan boyitish ustida talay ishlar qilindi.

Arxeologiya muzeyining binosi „O‘zqishloqloyiha“ institutining ilmiy xodimlari tomonidan Masjid, maqbara, xonaqoh, qorixona kabi binolardan iborat bo‘lgan. Majmuaning umumiy maydoni 28.0x29.0 metr bo‘lib, shundan maqbara 5.10x4.70 metrni tashkil etadi. Rivoyat qilinishicha dastlab xom g‘ishtdan xonaqoh (9-asr) bunyod etilib, Hakim Termiziy shu yerda yashab mudarrislik qilgan. Binodan keng hovlining bir qismi, qalin devor to‘siq va shimoli-sharqiy burchagida uncha katta bo‘lmagan yerto‘lasimon hujra saqlangan. Vaqtlar o‘tishi bilan qabr ustiga, xonaqohning janubi-g‘arbiy burchagida xom g‘ishtdan janubga qaratib maqbara bunyod etilgan (9-asr). Termiziy maqbarasi xalq orasida ulug‘lanib avliyo qabri, muqaddas ziyoratgoh sifatida e‘zozlangan. Keyinchalik maqbaraning sharqiy devoriga tutashtirib kichik qorixona va o‘g‘li alHakim Abdulloh maqbarasi (10-asr), shim.da uncha katta bo‘lmagan hovliga qaragan 3 gumbazli, ravokli yo‘lak ko‘rinishidagi namozgoh masjidi (11 —12-asrlar) hamda bir qator qo‘shimcha xonalar qo‘shilgan.



#### At Termiziy majmuasi

At-Termiziy majmuasi hududida shuningdek, chillaxonalar ham joylashgan. Mazkur chillaxonalar milodiy V-X asrlarga oid tarixiy g‘or inshooti hisoblanadi<sup>[2]</sup>. Majmua xalq orasida Termiz-ota deb ham nomlanadi. Afsonaga ko‘ra, o‘n yoshida unga vahiy kelib, bir qariya unga bilim bergan. Vaqt o‘tishi bilan Termiziy shuhrat qozongan, lekin ota-onasining uyida kamtarona yashashni davom ettirgan. Hakim at-





Termiziy shahid sifatida vafot etgan – qarilik chogʻida shaharga bostirib kirgan dushmanlar uni boshidan judo qilganlar (IX asr oxiri). Afsonaga koʻra, Chingizxon ushbu noyob durdonadan hayratda qolgan, oʻz qoʻshiniga yodgorlikka zarar bermaslikni buyurgan, chunki u bu binoni odamlar emas, balki xudolar yaratgan deb ishongan. Maqbara ustida gumbaz koʻtarilgan, bino ichida esa juda hashamatli bezaklar bor. Marmardan yasalgan va noyob naqshlar va arab yozuvlari bilan bezatilgan avliyoning qabr toshli diqqatni oʻziga tortadi. Ansamblning yonida sal keyinroq qurilgan jome masjidi joylashgan. At-Termiziy majmuasi hududida yana bir nechta qiziqarli diqqatga sazovor joylar mavjud: Chillaxonalar – milodiy V-X asrlarga oid qadimiy gʻor inshootlari, qadimgi Tarmita shaharchasining xarobalari (Eski Termiz), Termiz shahri va Termiz shahar muzeyi.

### **Maqbara**

Hakim at-Termiziy mashxur soʻfiy shaxs hisoblanadi. Olimlarning aniqlashicha uning 400 dan ortiq asari mavjud boʻlib, shularning bor yoʻgʻi 60 tasi bizgacha yetib kelgan. Hakim at-Termiziy dushmanlari tomonidan oʻldirilib, boshi uzib tashlanadi. Soʻngra shu majmuada joylashgan maqbaraga dafn etiladi. Mazkur yodgorlik 4 boʻlma (xona)dan iborat yaxlit bino koʻrinishida tiklangan. Shimoliy-sharqiy tomonida ayvon qurilishi sababli xonalar soni 3 ta boʻlib qolgan. Xonaqoh yonidagi 3 ayvon gumbazli, qalqonsimon bagʻalli tarzda ishlangan. Xonaqoh gumbaz tomga ega, hamda oʻz mehrobi bor. Xonaqohning poli goʻrxonaga qaraganda ancha past hamda ularning oraligʻi rovoqlar bilan ajratib qoʻyilgan. Maqbara ganjkor bezaklar bilan bezatilgan. Tashqi devorlariga esa 6 gʻishtin ravoq ishlangan.

Hakim at-Termiziy maqbarasining kirish qismidago peshtoqiga arabiy yozuvlar bilan bir qator jumlar bitilgan. Bu bitiklarda: "Alloh taolo zikr etadi: „Bu yerga tinchlik va omonlik bilan kiring.“" soʻzlari yozilgan.

Termiziy maqbarasida taʼmirlash ishlari Amir Temur tavalludining 660-yilligi munosabati bilan 1996-yilda amalga oshirilgan.

100 ming eksponatlarni oʻz zahiralarda saqlash imkoniyatiga ega bino sifatida loyihalashtirilgan.

**Termiziy meʼmoriy majmui**, Hakim Termiziy maqbarasi – Termizdagi meʼmoriy yodgorlik (9—15-asrlar). Musulmonlar uchun muqaddas boʻlgan Al Hakim at-Termiziy maqbarasi qadimgi Termiz shahrining chekkasida joylashgan. Maqbarada buyuk islom arbobi, turli falsafiy va diniy asarlar muallifi, darveshlar jamoasining yaratuvchisi Abu Abdulloh ibn Hasan ibn Bashir al-Hakimiy at-Termiziy maqbarada dafn etilgan. Majmua Abu Abdulloh Muhammad Hakim Termiziy (taxminan 750—760 Termiz – 869) nomi bilan bogʻliq. Bu maqbarada Termiziyning qabri joylashgan. Termiziy meʼmoriy majmui asrlar davomida bir necha bor qayta qurilgan. Bugugi





kunda bu majmua vohaliklar va viloyat mehmonlari uchun asosiy ziyorat manzilgohlaridan biri hisoblanadi. Masjid, maqbara, xonaqoh, qorixona kabi binolardan iborat bo'lgan. Majmuaning umumiy maydoni 28.0x29.0 metr bo'lib, shundan maqbara 5.10x4.70 metrni tashkil etadi. Rivoyat qilinishicha dastlab xom g'ishtdan xonaqoh (9-asr) bunyod etilib, Hakim Termiziy shu yerda yashab mudarrislik qilgan. Binodan keng hovlining bir qismi, qalin devor to'siq va shimoli-sharqiy burchagida uncha katta bo'lmagan yerto'lasimon hujra saqlangan. Vaqtlar o'tishi bilan qabr ustiga, xonaqohning janubi-g'arbiy burchagida xom g'ishtdan janubga qaratib maqbara bunyod etilgan (9-asr). Termiziy maqbarasi xalq orasida ulug'lanib avliyo qabri, muqaddas ziyoratgoh sifatida e'zozlangan. Keyinchalik maqbaraning sharqiy devoriga tutashtirib kichik qorixona va o'g'li alHakim Abdulloh maqbarasi (10-asr), shim.da uncha katta bo'lmagan hovliga qaragan 3 gumbazli, ravokli yo'lak ko'rinishidagi namozgoh masjidi (11 —12-asrlar) hamda bir qator qo'shimcha xonalar qo'shilgan.



At Termiziy majmuasi 2

At-Termiziy majmuasi hududida shuningdek, chillaxonalar ham joylashgan. Mazkur chillaxonalar milodiy V-X asrlarga oid tarixiy g'or inshooti hisoblanadi. Majmua xalq orasida Termiz-ota deb ham nomlanadi. Afsonaga ko'ra, o'n yoshida unga vahiy kelib, bir qariya unga bilim bergan. Vaqt o'tishi bilan Termiziy shuhrat qozongan, lekin ota-onasining uyida kamtarona yashashni davom ettirgan. Hakim at-Termiziy shahid sifatida vafot etgan – qarilik chog'ida shaharga bostirib kirgan dushmanlar uni boshidan judo qilganlar (IX asr oxiri). Afsonaga ko'ra, Chingizxon ushbu noyob durdonadan hayratda qolgan, o'z qo'shiniga yodgorlikka zarar bermaslikni buyurgan, chunki u bu binoni odamlar emas, balki xudolar yaratgan deb ishongan. Maqbara ustida gumbaz ko'tarilgan, bino ichida esa juda hashamatli bezaklar bor. Marmardan yasalgan va noyob naqshlar va arab yozuvlari bilan bezatilgan avliyoning qabr toshli diqqatni o'ziga tortadi. Ansamblning yonida sal keyinroq qurilgan jome masjidi joylashgan. At-Termiziy majmuasi hududida yana bir nechta qiziqarli diqqatga sazovor joylar mavjud: Chillaxonalar –





milodiy V-X asrlarga oid qadimiy g'or inshootlari, qadimgi Tarmita shaharchasining xarobalari (Eski Termiz), Termiz shahri va Termiz shahar muzeyi.

### **Maqbara**

Hakim at-Termiziy mashxur so'fiy shaxs hisoblanadi. Olimlarning aniqlashicha uning 400 dan ortiq asari mavjud bo'lib, shularning bor yo'g'i 60 tasi bizgacha yetib kelgan. Hakim at-Termiziy dushmanlari tomonidan o'ldirilib, boshi uzib tashlanadi. So'ngra shu majmuada joylashgan maqbaraga dafn etiladi. Mazkur yodgorlik 4 bo'lma (xona)dan iborat yaxlit bino ko'rinishida tiklangan. Shimoliy-sharqiy tomonida ayvon qurilishi sababli xonalar soni 3 ta bo'lib qolgan. Xonaqoh yonidagi 3 ayvon gumbazli, qalqonsimon bag'alli tarzda ishlangan. Xonaqoh gumbaz tomga ega, hamda o'z mehrobi bor. Xonaqohning poli go'rxonaga qaraganda ancha past hamda ularning oralig'i rovoqlar bilan ajratib qo'yilgan. Maqbara ganjkor bezaklar bilan bezatilgan. Tashqi devorlariga esa 6 g'ishtin ravog' ishlangan. Hakim at-Termiziy maqbarasining kirish qismidagi peshtoqiga arabiy yozuvlar bilan bir qator jumlar bitilgan. Bu bitiklarda: "Alloh taolo zikr etadi: „Bu yerga tinchlik va omonlik bilan kiring“. " so'zlari yozilgan. Termiziy maqbarasida ta'mirlash ishlari Amir Temur tavalludining 660-yilligi munosabati bilan 1996-yilda amalga oshirilgan. Temuriylar hukmronligi davrida (15-asr) xonaqoh baland asos (balandligi 1,5 m) ustiga pishiq g'ishtdan qayta qurildi. Unga tutash bo'lgan xonalar ta'mirlandi. Xonaqohning shimoliy va janubiy tomonlariga peshtoq ishlandi. Oddiy va aniq qurilmali xona devorlari ravog' ustunlari „romb“ ko'rinishidagi poyustunga tayangan. Hakim Termiziy maqbarasi 9-asrda bunyod etilgan xonaqoh hujralaridan biri bo'lgan. Xonaqoh hovlisining g'arbidagi 3 gumbazli masjid maqbaraga tutash, 3 ravog'i hovliga qaragan. Masjidning g'arbiy devor markazida keng hoshiyali mehrob bor. Undagi bo'rtma yozuv, sopol shakllar, oraliq zaminidagi o'yma ganch bezaklar o'ziga xos. Masjid ustunlari g'ishtdan bezakli qilib terilgan. Masjiddan ravog' orqali maqbaraga o'tiladi. Maqbara ichi ganch o'ymakorligida gilam nusxa bezakda serhasham pardoqlangan. Gumbazosti sharafasida kufiy xatida Qur'onning 36 surasi o'yib yozilgan. Xonaqoh ichi ham yulduzsimon girih naqshlar bilan pardoqlangan.

Ravoklaridagi tobadonlariga panjaralar o'rnatilgan. Maqbara ichidagi oq marmar sag'ana temuriylar davridagi tosh o'ymakorligi san'atining yuksak namunasidir. Sag'ana 3 pog'onali, asosi islamiy naqsh va yozuvli hoshiyalar bilan, o'rta qismidagi 3 mehrobiy tokchanning markaziy (o'rta) qismi muqarnas kosachalar bilan, 2 yoni shamchiroq tasviri bilan bezatilgan. Sag'anadagi yozuvlarda Termiziy hayoti va faoliyati tavsiflangan. Kichik maqbarada ham ta'mirlash ishlari olib borilgan. Abdullaxon hukmronligi davri (16-asr)da hazira (hovli) hududida 9 gumbazli masjid (eski masjidni ham o'z ichiga olgan) qurilgan. Oldida yengil ravog'





ustunli ayvon joylashgan. 19-asrda 9 gumbazli masjid o'rnida 4 gumbazli masjid bunyod etilgan. Janubdan kiraverishda yana bir maqbara (go'rxona va ziyoratxonadan iborat) qurilib, ravoqli bo'lmalar orqali Termiziy maqbarasi va xonaqoh bilan o'zaro bog'langan. Termiziy me'moriy majmui 1955—1957-yillarda ilmiy o'rganilib 14—15-asrlardagi ko'rinishi qayta tiklandi. 1980—1981-yil va 2001—2002-yillarda maqbara va xonaqoh qayta pardoziqlandi. Marmar qabrtosh o'z joyidan Termiz muzeyiga qarashli qo'riqxonaga ko'chirib o'tkazilgan. Uning o'rniga esa maqbara ustiga ustalar tomonidan ishlangan qabrtosh nusxasi olib kelib, o'rnatilgan. Maqbara bir necha bora ta'mirlangan va qayta tashrif uchun ochilgan.

### **Xulosa**

Termiz tumani o'zining qadimiy tarixi, rang-barang etnografik tarkibi va hududiy shakllanishi bilan Surxondaryo viloyatining alohida e'tiborli hududlaridan biridir. Bu tuman madaniyatlar chorrahasi sifatida nafaqat tarixiy, balki zamonaviy O'zbekiston hayotida ham muhim rol o'ynaydi. Etnik guruhlar o'rtasidagi totuvlik, madaniy xilma-xillik va ijtimoiy barqarorlik tumanning uzoq muddatli taraqqiyotida asosiy omillar bo'lib qoladi.

Etnik tarkibdagi bunday xilma-xillik Termiz tumanining ijtimoiy muhitida madaniyatlararo bag'rikenglikni shakllantirgan. Turli millat vakillarining madaniy qadriyatlari, urf-odatlar, tili va diniy e'tiqodlari umumiy jamiyat hayotiga uyg'unlashgan. Bu holat Termiz tumanini nafaqat tarixiy-madaniy jihatdan, balki zamonaviy ijtimoiy barqarorlik jihatidan ham yuksak salohiyatga ega hudud sifatida namoyon etadi.

Tumanning hududiy shakllanishida qadimiy sug'orish tizimlari, Amudaryo vodiysi iqlimi, tarixiy yo'llar va savdo markazlari, hamda sovet davridagi ma'muriy bo'linishlar muhim o'rin tutgan. Bugungi kunda Termiz tumani iqtisodiy jihatdan asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan bo'lib, bu soha aholining asosiy daromad manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, tarixiy yodgorliklar va ziyoratgohlarning mavjudligi turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdullayev, H. (2007). *O'zbekiston etnografiyasi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Bobojonov, M. (2019). *Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tarixi*. Termiz: Surxon nashriyoti.
3. Qosimov, B. (2014). *O'zbekiston hududlarining tarixiy-geografik rivojlanishi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Baratov, S. (2003). *Termiz shahrining tarixiy yodgorliklari*. Toshkent: Sharq nashriyoti.





5. Karimov, I. (1997). *Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat.
6. Rasulov, A. (2020). “Janubiy O‘zbekiston aholisi etnik tarkibi va migratsion jarayonlar”, *Tarix va etnografiya jurnali*, №2.
7. Surxondaryo viloyati hokimligi rasmiy sayti – [www.surxondaryo.uz](http://www.surxondaryo.uz)
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. “Termiz tumani demografik ma’lumotlari”, 2023-yil.

